

GULJAMOL ASQAROVA SHE'RLARINING BADIY TALQINI

Maqsudova Odina Mutalipxon qizi

Andijon davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Guljamol Asqarova she'rlarining badiiy talqini, she'rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umuminsoniy fikr va tuyg'ulari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Guljamol Asqarova, "Dil fasli", "Ro'shnolik", "Bedor qo'ng'iroq", "Baxt dastxati".

Guljamol Asqarova 1978-yil 5-mart kuni Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, Beshdarg'at qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy Universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, 2001-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining adabiyot yo'nalishi sohibasi. "Dil fasli", "Ro'shnolik", "Bedor qo'ng'iroq", "Baxt dastxati" nomli she'riy kitoblari nashr etilgan. Guljamol Asqarova she'rlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, she'rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umuminsoniy fikr va tuyg'ular belgilaydi. Shu ma'noda, Guljamol Asqarova ijodining haroratini ta'minlagan omil ham undagi jo'shqin va faol insonparvarlik, poetik timsol, go'zal tuyg'ular olamidir. Guljamol asqarova lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyot vobastaligidan hosil bo'lgan she'riyatdir. She'r so'zi misoli karomat yanglig'. Unda xayoldagi hayot o'ngga, o'ngdagi hayot xayolga aylanib boradi. Va bu sira to'xtamaydi. Atoqli shoirimiz Guljamol Asqarovaning o'ziga xos she'riyatida ayol ruhiyatini, uning botiniy olamiga nazar solishda, oddiy leksik birliklar ishtirok etadi, bu shoironing o'ziga xos uslubi, badiiyatidan darak beradi:

Ishonaman, uning ishqidan

Yuragimga bahor o'tadi.

Shoira "Ertak fasli" nomli she rida shahzodasining ishqidan yuragiga bahor o'tishini, ya ni ishqdan uning qalbi yosharishi, go'zal tuyg'ularni his qilishini oddiy leksik birliklarni mahorat bilan qo'llab, betakror satrlarni yuzaga keltirgan. O'xshatish-poetik matnlar tilning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri. Ular vositasida muallif fikrlari obrazli tarzda o'quvchiga yetkaziladi, kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish amalga oshiriladi, asar tilining emotsional-ekspressivligi ta'minlanadi, muallif individual uslubi o'z poetik tasviriga ega bo'ladi. O'xshatish deganda "ikki narsa yoki voqea- hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash" tushuniladi. Guljamol Asqarova she'riyatida qo'llanilgan o'xshatishlar o'zining betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga

jalb etadi, unga zavq-u shavq bag'ishlaydi. Guljamol Asqarovaning barcha yozganlari karomatlarga to'la; balki har bir asari karomat. U qanday yozgan bo'lsa, shunday yashadi. Umrni she'r balandligiga, she'rni umr balandligiga ko'tardi. She'ru umr aro mutanosiblik, ya'ni uyg'unlik yaratdi. Va yana shunchaki yashamadi, shunchaki yozmadi. Guljamol Asqarova she'riyat — badiiyatga o'z jumlasini bilan kirib keldi. Zotan, adabiyotga — badiiyotga faqat xos jumla bilan kiradilar: bir jumla o'qiganda darhol bu Muhammad Yusuf, bu Iqbol Mirzo deydilar. Guljamol Asqarova ham ilk she'rlaridanoq shunday shoir bo'ldi. Binobarin, biron she'rida birovga o'xshamadi. Ergashganligi rost, ammo o'xshashi yo'q. “Bir lahza o'zimni unittirdi ishq”-deydi shoira bir satrida. Biroq, shoira she'rlarida bosh mavzu bu-ishq. Nafaqat bir lahza, bir umr bu tuyg'u uni tark etgani yo'q. Bu uning yozganlarida namoyon bo'ladi. Kamalak ranglari uchun tashakkur, Hijroning zanglari uchun tashakkur. Shoira ushbu misralarida yor bilan kechgan har bir daqiqa kamalak ranglari ila tasvirlanadi. Shoira ismi gul, jismi ham gul, ruhiyati ham gul. Ana shu gulni ulg'aytirgan tuyg'u muhabbat. Muhabbatning dardi ham, azobi ham shirin. Yordan ayro yurak yarasi yor jamolisiz tuzlamaydi, taskin topmaydi. Shu tarovat uning ijodiy qarashlariga o'ng tushdi. To'g'rirog'i, unga tarovatni qodir tabiatning o'zi ato etdi: har so'zida tarovat, har tarovatida xirom bor va tarovatu xirom yozganlarida harir tob tortib zuhurlanadi. Muhabbatda xirom ibo, sog'inch, ayriliq, sabr, dard ila yuzaga keladi. Guljamol Asqarova Halima Xudoyberdiyeva she'riyatiga havas qilardi. Havas qilgani she'riga va uning ohanglariga ko'chdi. Kamolga yetgan chog'larida yaratgan kitobini “Dil fasli” deb atadi. shoira dil faslida tug'yonlar, po'rtanalar ichida she'rlarini qutlab, Zulfiyaxonimga munosib izdosh bo'lishga intildi. “His-tuyg'u Guljamol Asqarovada shu qadar yaxlit, shu qadar haqiqiy kattaki, ko'zlarida oftob yonib, qonida saraton kezadi. Hayrat qalami bilan yozilgan asarlar “Dil fasli”, “Ro'shnolik”, “Bedor qo'ng'iroq”, “Baxt dastxati”, “Erkalik imtiyozi”, “Turnalar yo'li” kabi jamuljam kitoblari va go'zal turkumlarida ish-muhabbat tuyg'ulari tarannum etilgan. Bilmadim, bu cheksiz mahzun so'zlardan tarix chiqadimi. Elu yurt yarim asrdan ortiq jon qulog'i bilan tinglagan va mutaassir bo'lgan ovoz tindi. Ammo tarovatli, xumor ovoz hamon yangraydi, hech qachon tinmaydi. Chunki Oftob va Saraton mangu boshimizdadir. Dunyo va hayot uning ko'z o'ngida yaxlit gavalandi. Bu dunyo va hayot insonga bus-butun holda qadrlash, sevish va asrash, ardoqlashga Xalq mentalitetiga daxldor bir dono ibora Guljamol Asqarova satrlarida olamga parvoz qildi. Fikrlash tarziga kirib bordi.

“Ay do'stixon yuzlaringni bir ko'ray” she'ri.

Yuragimni qiynab yotar diydoring,

Sochlaringni tolasicha ozoring.

Yig'ishtirsang bo'lmasmi bu bozoring,

Axir men ham g'amsiz yurtdan kelmadim.

Do'stijonim, dunyo bizdan qolarku,
Qolganda ham o'z haqqini olarku.
Boshimizga ne savdolar solar u,
Baxt bozordan bir bozorlik qilmadim.
Yuzlaringda Xudoyimdan nur ko'rdim,
Ko'zlaringda hech kim bilmas sir ko'rdim.
Yolg'iz seni hur ko'rdima-a, hur ko'rdim,
Sendan o'zga nurni ko'zga ilmadim.
Diydoringni ko'rolmayin dog'daman,
Holingni bir so'rolmayin dog'daman.
Bag'rim yerda, turolmayin dog'daman,
Ming yil bo'ldi jilmaymadim, kulmadim.
Mag'rur edim, tikka ketgan yo'l edim,
Sog'inchingda olov bo'ldim, kul edim.
Erta indin so'ladigan gul edim,
Seni bir bor ko'ray deya so'lmadim.
O'tib qo'ysang bo'lmaydiku bag'rimdan,
Qahratonlar qo'rqar emish qahringdan.
Senga bollar yasab beray zahrimgan,
O'zim bemor, hech tabibing bo'lmadim.
G'animatman, ko'zlarimni ko'rib qol,
Bu oftoblig' yuzlarimni ko'rib qol.
Ketayapman, izlarimni ko'rib qol,
Mehr tilab ostonangdan jilmadim.
Do'stijonim, aytgin qachon sensizman.
Poying o'pganlaring aro tengsizman.
Men mehrdan bunyod bo'lgan dengizman,
Bag'ringni och, hech bahrga to'lmadim.
Bu el ichra shoir degan shonim bor,
Sharaflarga to'lib ketgan nomim bor.
Bu lazzatlig' ne'matlarga to'ydimu,
Sening munglig' diydoringga to'ymadim.
Xudoyimning dunyosida zerikdim,
Boshdin oxir ro'yosida zerikdim.
O'zing menga bir dunyo bo'l do'stijon,
Bu dunyoda man sani deb o'lmadim.
Kel do'stijon ko'zlaringni bir ko'ray.

Xulosa:

Guljamol Asqarova she'rlarida shunday o'z joyida va o'z vaqtida topib aytilgan fikrlar badiiy ruhiyat iqlimlarini yaratdi. Adib dunyosini yaratdi, chunki joyiga qo'yish, joyida aytish, joyida qilish tom adabdir. Yana birdan Guljamol Asqarova yana o'sha o'ktam va dov ovozi bilan chorladi: "Ay do'stijon yuzlaringni bir ko'ray", "Baxt kelsa ham, sensiz kelmasin!", "Yorilmoq dardini eslating qayta!" teran aks sado berdi. Guljamol Asqarova o'z bag'irdor she'rlari barobarida, hayotda bir ruhoniyl iqlim yaratdi. Bu uning o'z ruhiyat iqlimi edi. Biz uning mavzun saflana-saflana, tovlana-tovlana, dam laylivash, dam majnunvash, dam yassaviyona, dam mashrabona sollarib hayot, ijod, nafasat mintaqalarini adl-dov egallagan asarlari timsolida Bahodir Karimov ta'biri bilan "Ishqparast" degan fasona maydonga chiqdi, deb aytolamiz. Ayol bilan so'zlashganda, sevgi va muhabbat tili bilan so'zlashmoq kerak. Chunki ayol ishqni Ollohga vosil etadigan bosh va dahlsiz yo'l hisoblaydi. U fano maqomiga ko'tarilgach o'zini dunyoviy bir borliq sifatida ko'rmaydi. Ana shunda u "Huru jannat orzusini xayolga ham keltirmaydigan darajada ma'nan yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova G. Dil fasli. She'rlar. T.: cho'lpon. 1998
2. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983. B.239
3. Mamarajabova Z. Ko'rinish sifatlarining grammatik xususiyatlari. Til va adabiyot ta'limi, 2002 y 2-son
4. Г. Асқарова Турналар йўли: шеърлар. — Т.:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. - 32 б
5. www.ziynet.uz